

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**MS**  
**2022**



MUNDARIJA

Nodir YADGAROV. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o'ri	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san'atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida)	14
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o'qitishda me'morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda milliy qadriyat va an'analarning o'ri	21
Shuhrat G'ULOMOV. Tarixiy janrda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to'g'ri qo'llash tartibi va ularning emotsional ta'siri	27
Qoryog'di JUMAYEV. Kasb-hunar ta'limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san'at o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san'ati	37
Muhayyo AZIMOVA. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari va ularning o'ziga xos tomonlari	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE'MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi	47
Oybek SHOMURODOV. O'rta maktab tasviriy san'at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san'atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o'ri	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o'lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san'at darslarida borliqni idrok etish hamda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жительниц Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O'zbekiston rassomlari ijodida manzara janri	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko'chirish" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san'atining bir turi sifatida	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO'RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san'atda ranglardan foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san'atning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'ri	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san'atni o'qitishda borliqni idrok etish mashg'ulotlari	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishi	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san'ati	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi	103
Jo'rabek YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O'rta ta'lim maktablarda musiqa muammo va yechimlari	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения	108
Jo'rabek YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari	117
Jo'rabek YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo'llashning mazmuni	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta'limi orqali milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash	122



**Sanjar AZIMOV**  
Buxoro davlat universiteti  
tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrasida dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)

**Maftuna SULAYMONOVA**  
Buxoro davlat universiteti  
tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati  
mutaxassisligi magistri

---

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA  
TASVIRIY SAN'ATNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT  
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI**

---

*Maqola mavzusining dolzarbligi uning amaliy ahamiyati bilan belgilanadi. Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'quvchilarni tayyorlashda tasviriy san'at o'qitish metodikasini o'rgatish tajribasi tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: kreativlik, refleksiya, audio, o'qitish usullari.*

*Актуальность темы статьи определяется ее практической значимостью. В статье анализируется опыт преподавания методики преподавания изобразительного искусства при подготовке будущих учащихся изобразительного искусства.*

*Ключевые слова: творчество, рефлексия, аудио, методика обучения*

*The relevance of the topic of the article is determined by its practical significance. The article analyzes the experience of teaching fine arts teaching methods in the preparation of future students of fine arts.*

*Key words: creativity, reflection, audio, teaching methods.*

**Kirish.** O'qituvchining faoliyati dars o'tish bilan birga, o'quv metodik ishlarni olib borish, ilmiy bilimlarni tashviqot qilish, ilmiy tadqiqot ustida ish olib borish va kafedraning ilmiy salohiyatini oshirish, ko'rgazmali qurollarni tayyorlash, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish uchun taqdimotlar tayyorlash, maslahat berish, talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, kafedra majlislarida ishtirok etishlar ham kiradi.

**Asosiy qism.** Pedagogik kasblarni tanlagan talabalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- pedagogik kasbning shaxsiy va ijtimoiy qimmatini, ahamiyatini, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan demokratik jamiyatda uning o'rni, vazifalari va xususiyatlarini ochib berish;
- o'qituvchini pedagogik faoliyatga tayyorlashning tizimi, mazmuni, shakl va metodlarini bayon etish;
- oliy maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishini, mustaqil ishlash metodikasini o'rganishdan iborat.

Kasbning mohiyatini chuqur anglashga, mustaqil o'qish, ilmiy ishlar, jamoat ishlarida ongli ravishda va faol qatnashishga yordam beradi. Bularni o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning faoliyati va tafakkurini professional - pedagogik yo'nalishda shakllantirishga, oliy maktabda ta'lim olish sharoitlariga ko'nikish hosil qilishlariga imkon beradi. Unda pedagogik kasbning axloqiy xarakteri, o'qituvchi odobining tushunchalari, norma va qoidalari bayon etiladi. Bu bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarda o'qituvchi odobini shakllantirish pedagogika va psixologiya hamda ixtisoslik tasviriy san'at fanlarini o'qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Bu fanlardan o'qitilayotgan mavzularning mazmuni bilan bog'liq ravishda talabalarning e'tibori kasbiy axloq-odob masalalariga jalb etiladi.

Istiqbolli rejalarning ba'zilarida oliy o'quv yurtini bitirib maktablarda, o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlari, korxonalarda ishlayotgan kishilar bilan uchrashuvlar, ularning professional malakasini oshirishga yordam beradigan boshqa tadbirlar ham mo'ljallanadi. Bu oliy maktabni bitirib chiqqan kishilar bilan uchrashuvlar, ularning professional malakasini oshirishga yordam beradigan boshqa tadbirlar ham mo'ljallanadi. Bu ish alohida diqqatga sazovordir. Chunki u mutaxassislar tayyorlash sohasida amalga oshirilgan barcha ishlar natijasining samaradorligini aniqlashga, xususan, universitetni tamomlab chiqqan yosh o'qituvchilarning axloqiy sifatleri shu holdagi talablarga qay darajada mos kelishini aniqlashga yordam beradi.

Talabalarning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi – uning faolligiga bog'liq. Talabalar bajaradigan kasbiy o'quv-biluv mehnati, ijtimoiy foydali ishlar, umumli mehnat yoshlarda kasbiy malaka va

ko'nikmalarni, qobiliyat va xarakterni, boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish va ijtimoiy foydali mehnat natijasida shaxsning fuqarolik qiyofasi tarbiyalanadi, shaxs va jamiyat manfaati yo'lida xizmat qilish ko'nikmasi hosil bo'ladi, mehnatga va mulkka munosabat hissi rivojlanadi. Faoliyatning barcha turlarida izchil qatnashish talabning mustaqilligi va ijtimoiy faolligini oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi, ularda professional - kasbiy sifatlarni va axloqiy fazilatlarini o'stirishga imkon beradi.

#### **Muhokamalar va natijalar. Talabning bilimdonligi**

Pedagogik mahorat yuksak darajadagi ma'naviy yetuklik hamda pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeni ifodalaydi.

Pedagogik mahoratning asosini pedagogik bilimdonlik tashkil etadi. Pedagogik bilimdonlik, deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yor, norma, standart va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobiliyat va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak u yetarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlikning bosh ko'rsatkichi, bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta olish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi hamda maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Bilimdonlik oliy maktab o'qituvchisi uchun o'ta muhim bo'lgan 3 ta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqozo etadi:

- odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy muloqotda bo'lish;
- fan sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;
- o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan 4 ta komponenti bilan xarakterlanadi:

- shaxsga, insonga yo'nalganlik;
- pedagogik voqelikni izchil idrok etish;
- fan sohasiga yo'nalganlik;
- pedagogik texnologiyalarni egallash.

Hozirgi ta'lim jarayonida kasbiy-pedagogik bilimdonlik yana 3 komponent bilan to'ldiriladi:

- bilimdonlik, uniman, o'z faoliyatini jahon pedagogik madaniyatini darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil etish qobiliyati hamda unga va Vatanimizdagi pedagogikaga integratsiyalasha olish;
- o'z safdoshi vazifasi va innovatsion tajribalar bilan o'zaro samarali munosabat o'rnatish qobiliyati;
- o'z tajribalarini umumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo'ladi.

Pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi.

Kreativlik - bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik o'qituvchiga innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Har qanday darajadagi kasbiy bilimdon pedagogik refleksiyaga qodirdir.

Refleksiya – fikrlashning maxsus usuli bo'lib, pedagogik voqelikka, tarixiy-pedagogik tajribaga, muayyan kasbiy mavqening tashuvchisi bo'lgan o'z shaxsiyatiga qayta nazar tashlashdir.

Yuqoridagi kasbiy pedagogik bilimdonlikni tashkil etuvchi barcha komponentlar murakkab tuzilmani hosil qilib, mutaxassisning "ideal modeli"ni shakllantira boradi va natijada zich birlashib ketadi hamda o'qituvchi shaxsi faoliyati tavsifini belgilaydi.

Bilimdonlik faqat faoliyat jarayonida va faqat konkret kasb doirasida namoyon bo'ladi va baholanadi.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni eng asosiysi, o'quvchi-talabning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

#### **Audio vositalar**

Audio vositalar eshitish orqali axborotni o'rganish, o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Hozirda ko'proq audiovizual vositalar, ya'ni bir vaqtda eshitish va ko'rishga xizmat qiluvchi vositalar: kino va boshqa ovoqli video tasvirlardan foydalaniladi.

Aslida esa amaliyotda mavjud sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, ijodiy yondashuv asosida mavjud vositalardan kompleks foydalanish eng yaxshi samara berishi mumkin.

*Tabiiy vositalar*

Tabiiy vositalarga pedagogik texnologiya jarayonida o'rganish ko'zda tutilgan mazmunga tegishli barcha tabiiy narsalar kiradi. Bular odam va jonivor, o'simlik va tabiat, asbob-uskunalar, buyum, mashina, mexanizm, inshootlar va shu kabilardan iborat.

Talaba - o'quvchi va o'qituvchi uchun zarur o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari pedagogik texnologiyaning zarur vositalari hisoblanadi.

Xulosa. Umuman, pedagogik texnologiyaning sifati va samaradorligi hozirgi kunda ko'p jihatdan barcha turdagi zarur vositalarning sifati va ulardan yuqori samaradorlik bilan foydalana bilishga bog'liq. Bu vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish o'qituvchining malaka, mahorat, ijodkorligi, izlanuvchanligiga bog'liq.

**Adabiyotlar**

1. Азимов С.С. Психологические аспекты формирования профессионального мастерства будущих учителей изобразительного искусства //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99).
2. Samadovich A. S. Methodics of using programmed means of education for the formation of professional skills of future teachers of fine art. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Progressive Academic Publishing, Amerika, 2020. –P. 94-99.
3. AS Samadovich, AS Nayimovich, SM Nosirovna .Technology of Teaching Fine Arts and Science Classroom .International Journal of Progressive Sciences and Technologies – 2021. –25 (2), 109-114.